# Konvensiya loyihasining targʻiboti

“Yer resurslarini boshqarish” fakulteti ma’ruzalar zalida Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasalari professor-oʻqituvchilari, talaba-yoshlar oʻrtasida BMTning “Yoshlar huquqlari toʻgʻrisida” gi konvensiya loyihasi targʻibotiga bagʻishlangan davra suhbati boʻlib oʻtdi.

Davra suhbatini fakultet dekani Sh.Narbayev kirish soʻzi bilan ochib berdi va ushbu davra-suhbatiga taklif etilgan mehmon, Toshkent davlat yuridik universiteti professori  - O. Muhammedjonovga soʻz berdi.  O. Muhammedjonov oʻz ma’ruzasida yurtboshimizning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etib, bugungi globallashuv jarayonida yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan muhim xalqaro huquqiy hujjat — “Yoshlar huquqlari toʻgʻrisida”gi konvensiya ishlab chiqishni taklif qilganligini va  mazkur tashabbus zamirida dunyo yoshlarining farovon hayotga mustaqil qadam qoʻyishga boʻlgan istagini koʻrish mumkinligini aytib oʻtdi.

Shuningdek, “Yoshlar huquqlari toʻgʻrisi”da xalqaro konvensiya ishlab chiqish tashabbusini ilgari surgani bu boradagi yanada bir muhim qadam boʻldi. Ma’lumki, BMTda 1989 yilda bola huquqlari boʻyicha konvensiya qabul qilingan edi. Biroq yoshlar huquqlari toʻgʻrisida oʻylab koʻrilgani ham yoʻq edi. Aytish joizki, bugun dunyoda boʻlayotgan turli jinoyatlar, terrorizm, buzgʻunchilik harakatlari asosan 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani sir emas. Bunday buzgʻunchiliklar ba’zi manfur kuchlar tomonidan boshqarilayotgani, yoshlarning ular domiga bilib-bilmay, oʻz haq-huquqlarini tushunmay ilinib qolayotganini davlatimiz rahbari atroflicha asoslab, tahlil qilib berarkan, yoshlar kelajagini himoya qilish borasida qator takliflarini ilgari surganini aytib, hozirgi paytda dunyo aholisining ikki milliardini yoshlar tashkil etishi, demak, jahon yoshlarining haq-huquqlari bugun himoya qilinmas ekan, ertaga dunyoning kelajagi xavf ostida qolishini ta’kidladi.

Ma’ruzachi soʻzi soʻngida talabalarga murojaat qilib, “Yoshlar huquqlari toʻgʻrisida” gi konvensiya loyihasi haqida fikr-mulohazalari va takliflarini soʻradi. Ushbu  loyiha mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan gʻamxoʻrlikning oʻziga xos ifodasi ekanligini va bugungi kunda  yaratilayotgan keng imkoniyatlar har bir yoshni oʻz ustida tinimsiz izlanishga, yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga undashini aytdi.

Tadbir soʻngida talabalar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar tomonidan batafsil javoblar berildi. Fakultetning yoshlar bilan ishlash boʻyicha dekan muovini H.Eshova tadbirni yakunlar ekan, tadbirda ishtirok etgan mutaxassislarga fakultet ma’muriyati va talabalari nomidan minnatdorchilik bildirib, bu kabi davra suhbatlarini tez-tez oʻtkazish foydadan xoli boʻlmasligini ta’kidladi.

YeRB fakultetini Yoshlar bilan ishlash boʻyicha dekan muovini H.Eshova axboroti
Institut matbuot markazi Rahimboy Jumaniyozov